



MOVAROUNNAHRDA QUR'ON ILMLARI RIVOJI

Yangiboev Adhambek Esanovich

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o'rganish ICESCO” kafedrasi o'qituvchi-stajyori,
tel: +998998769290.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20757622>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 14-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 16-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 18-iyun 2026 yil

KEY WORDS

Qur'on ilmlari, movarounnahr, tafsir, hadis ilmi, qiroatlar, asbobu-n-nuzul, nosix va mansux, muhkam va mutashobeh, g'aribu-l-Qur'on.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Movarounnahr diyoriga Qur'on ilmlarining kirib kelishi hamda bu jarayonga sabab bo'lgan asosiy omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur mintaqadan yetishib chiqqan muhaddislarning Qur'on ilmlariga oid rivoyatlarni sahih to'plamlarda jamlashi natijasida soha rivoji yangi bosqichga ko'tarilgani yoritib beriladi. Qaffol Shoshiy, Abu Lays Samarqandiy, Imom Moturidiy, Abul Barakot Nasafiy va Abu Hafs Nasafiy kabi mufasssirlarning ilmiy merosi nafaqat tafsir ilmi, balki qiroat, asbobu-n-nuzul, nosix va mansux, muhkam va mutashobeh, g'aribu-l-Qur'on kabi Qur'on ilmlarining taraqqiyotida muhim o'rin tutgani ilmiy asosda ochib beriladi.

KIRISH

Islom sivilizatsiyasi tarixida Qur'on ilmlarining shakllanishi va taraqqiy etishi muayyan geografik hududlar, ilmiy muhitlar hamda ulamolar faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Shu jihatdan Movarounnahr mintaqasi islom ilm-fani, xususan, Qur'on ilmlari rivojida muhim o'rin tutadi. Bu hududda tafsir, qiroat, asbobu-n-nuzul, nosix-mansux, muhkam va mutashobeh, g'aribu-l-Qur'on kabi sohalar rivojida sahoba, tobein, muhaddis va mufasssirlarning xizmati beqiyos bo'lgan. Movarounnahrlik olimlar o'z asarlarida Qur'on ilmlariga oid rivoyatlar jamlash, Qur'onni anglash va talqin etishda rivoyat va diroyat usullarini uyg'un qo'llab, islom ilmlari tarixida o'ziga xos maktab yaratgan. Ayniqsa, hanafiy mazhabi asosida shakllangan ilmiy an'analar tafsir va Qur'on ilmlariga bag'ishlangan asarlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Dorimiy, Qaffol Shoshiy, Abu Lays Samarqandiy, Imom Moturidiy, Abul Barakot Nasafiy, Abu Hafs Nasafiy kabi muhaddis va mufasssirlarning ilmiy merosi mazkur jarayonning yorqin namunasidir.

ASOSIY QISM

Movarounnahrda Qur'on ilmlarining rivojlanishiga sabab bo'lgan bir qancha omillarni keltirish mumkin. Jumladan, bu zaminga hijrat qilgan sahoba va tobeinlar tub aholiga turli islomiy ilmlardan ta'lim berganlar. Masalan, D.Rahimdjanov “Abu Hafs Nasafiy va uning “Kitobu-l-qand” asari” nomli monografiyasida ularning tartibini quyidagicha sanab o'tgan: “Movarounnahrda 674-675 yillar: 1) Said ibn Usmon ibn Affon, 2) Qusam ibn Abbos, 3) Abul

Oliya Rufay ibn Mehron, 4) Muhammad ibn Vosi, 5) Burd (Anas ibn Molikning xizmatkori), 6) Zahhok ibn Muzohim, 7) Lays ibn Abu Sulaym, 8) Ziyod ibn Mehron, 9) Xolid ibn Hasson (r.a.)lar hijrat qilishgan” (Raximdjano D., 2020:69,70). Abu Hafs Nasafiyning “al-Qand fi zikr ulamo Samarqand” asarida esa Zahhok ibn Muzohimning Samarqandda yashagani, bolalarga Qur’ondan ta’lim bergani haqida ma’lumotlar mavjud. Bundan xulosa qilish mumkinki, Movarounnahrda kelgan sahoba va tobeinlar Qur’on ilmlarining tarqalishi va rivoj topishidagi dastlabki xizmatlarni amalga oshirgan.

Movarounnahrlik olimlarning islom diyorlariga borib, mashhur ustozlardan tahsil olgani va o’z yurtida madrasalarga asos solgani Qur’on ilmlari rivojining yana bir omili hisoblanadi. Masalan, Abu Hafs Kabir Buxoriy (vaf. 216/832) Abu Hanifaning shogirdi Muhammad ibn Hasan Shayboniy (vaf. 189/805) dan hanafiylik ta’limotini o’rganib, o’z yurtiga qaytganidan so’ng Buxoro fiqh maktabiga asos solgan va talabalarga turli fanlardan dars bergan.

Movarounnahrlik muhaddislarning ilmiy faoliyati Qur’on ilmlari rivoji yangi bosqichga chiqishida muhim o’rin kasb etgan. Chunki, ular Qur’on fazilatlarini, qiroatlar, yetti harf, nosix va mansux, sababi nuzul va boshqa mavzularga oid rivoyatlarni sahiih to’plamlarida jamlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriy (vaf. 256/870) Qur’on tafsiriga oid alohida “at-Tafsiru-l-kabir” nomli asar yozgan. Biroq u bizgacha yetib kelmagan. Shuningdek, muhaddisning “al-Jomeu-s-sahiih” asarida Qur’oni karim tafsiriga oid mingdan ortiq hadislar keltirilgan. Masalan, to’plamdagi “Qur’on tafsiri kitobi” deb nomlangan bobda Fotiha, Baqara, Oli Imron, Niso, An’om kabi 85 ta suradagi jami 358 ta oyat tafsir qilingan. “Qur’on fazilatlarini kitobi” bobida ham Qur’on ilmlariga oid ko’plab hadislarini uchratish mumkin (SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 2014:558).

Yana bir hadisshunos olim Abu Iso Termiziy (vaf. 279/892) ham o’z asarlarida Qur’on ilmlariga aloqador bir qancha hadislarini rivoyat qilgan. Xususan, “Sunanu-t-Termiziy” asarida “Kitob fazoili-l-Qur’on”, “Kitobu-l-qiroat”, “Kitob tafsiri-l-Qur’on” deb nomlangan boblar mavjud. “Kitob fazoili-l-Qur’on” bobida Qur’oni karim va uni o’rganish fazilatlarini, Fotiha, Baqara surasining oxiri, Oli Imron, Kahf, Yosin, Mulk va boshqa suralarning fazilatlarini haqidagi hadislar jamlangan. Shuningdek, Qur’ondan bir harf o’qigan kishiga beriladigan ajrlar hamda Rasululloh (s.a.v.)ning Qur’oni karimni qanday qiroat qilganliklari haqidagi hadislar keltirilgan. “Kitobu-l-qiroat” bobida qiroat turlari va Qur’oni karimning yetti harfda nozil bo’lgani to’g’risidagi ma’lumotlar mavjud. Qur’on tafsiriga doir “Kitob tafsiri-l-Qur’on” bobida esa Rasululloh (s.a.v.) Qur’oni karimdagi ko’plab oyatlarini tafsir qilib berganlarini haqidagi hadislar jamlangan.

Samarqandlik muhaddis Imom Dorimiy (vaf. 255/868)ning “Sunan” asarida ham “Kitob Fazoili-l-Qur’on” nomli alohida bob kelgan. Unda Qur’on o’quvchi va eshituvchining fazli, Qur’onni yod olib so’ngra esdan chiqarib yuborgan kishi, suralarning fazilatlarini kabi mavzulardagi hadislar keltirilgan.

Demak, Movarounnahrda Qur’on ilmlarining shakllanishi va rivojlanishida sahoba va tobeinlarning dastlabki faoliyati hal qiluvchi omil bo’ldi. Keyingi davrda ushbu hududdan yetishib chiqqan muhaddis olimlar sahiih hadis to’plamlari orqali Qur’on tafsiri va uning ilmlariga oid rivoyatlarni mustahkam ilmiy asosda jamlab, mintaqada bu sohaning keng ilmiy-amaliy taraqqiyotiga zamin yaratdilar.

Qur’on ilmlari Abu Hafs Nasafiy (vaf. 537/1142) yashagan davrga qadar sekin-asta rivojlangan bo’lib, soha olimlari uni bir necha bosqichga bo’lib o’rganganlar: Dastlabki bosqich, Qur’on ilmlarining kitoblarga yozilmasdan, og’zaki rivoyat asosida ta’lim berilish davridir. Bu

jarayon xalifa Usmonning hukmronlik davrigacha davom etgan. Bu paytga qadar mazkur ilmlarni o'z ichiga olgan kitoblar yozilmagani va ular alohida fan sifatida shakllanmagani bir necha sabablarga borib taqaladi. Jumladan, Rasululloh (s.a.v.) va sahobalar Qur'oni karimga doir ilmlarni yaxshi bilganlar. Oyatlarning tafsiri va ta'vilini, nozil bo'lish sabablari hamda ulardan olinadigan hukmlarni to'g'ri tushinganlar. Shuningdek, Rasululloh (s.a.v.) Alloh taolo nozil qilgan oyatlarni sahobalarga yetkazganida o'z qavllari, amallari, taqdir va xulqlari bilan bayon qilib bergan. Sahobalar esa ularni yaxshi tushunib, yodlab olganlar. Bundan tashqari Rasululloh (s.a.v.) sahobalarga hadislarni emas, balki Qur'on oyatlarini yozib borishlarini ta'kidlagan edi. Bu haqda Imom Muslim quyidagi hadisni keltirgan: "Abu Said Xudriy (r.a.)dan rivoyat qilinadi: "Mendan (hadislarni) yozib olmanglar! Kim mendan Qur'ondan boshqa narsani yozib olgan bo'lsa, o'chirib tashlasin. Mendan hadis aytishingizda tanglik yo'q. Kim menga yolg'on to'qisa – (Roviy) Hammam: "Menimcha, "qasddan" dedilar", degan. – o'ziga do'zaxdan joy hozirlab qo'yaversin" (Muslim ibn Hajjoj, 2006:1366). Albatta, bu buyruq Qur'oni karim nozil bo'lib turgan vaqtda, oyatlar hadislar va boshqa rivoyatlar bilan aralashib ketmaslik maqsadida aytilgan edi. Natijada mazkur davrda Qur'on ilmlari asosan sahobalarning yodlash, o'rgatish va rivoyat qilish amaliyoti orqali avloddan-avlodga yetkazilgan (Muhammad Adulazim Zarqoniy, 2017:29).

Qur'on nozil bo'lgan davrda Abdulloh ibn Mas'ud (r.a.) qiroat, sababi nuzul, makkiy va madaniy oyatlar singari ilmlarni yaxshi bilgan. Masalan, Imom Buxoriy u kishidan shunday rivoyat qilgan: "O'zidan boshqa iloh bo'lmagan Allohga qasamki, Allohning kitobidagi oyatlarning qaysi joyda va qanday sabab bilan nozil qilinganini juda yaxshi bilaman. Agar Allohning Kitobini mendan ko'ra chuqurroq biladigan shaxs borligini bilsam va u bilan uchrashish imkoniyati mavjud bo'lsa, albatta, (ilm olish maqsadida) uning huzuriga borardim" (Muhammad Abu Shahba, 1987:27).

Demak, ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'sha davrda sababi nuzul, qiroat, makkiy va madaniy oyatlar, nosix va mansux, muhkam va mutashobeh kabi Qur'on ilmlari hali kitob shaklida yozib qoldirilmagan bo'lsa-da, sahobalar va tobe'inlar tomonidan yoddan mukammal ravishda o'rganilgan. Ana shu ilmiy an'analar natijasida rivoyatlar tadvin va tasnif jarayonida mustahkam manba sifatida xizmat qilgan va keyingi asrlarda Qur'onga oid ilmlarning alohida fan sifatida shakllanishiga zamin yaratgan.

Qur'on ilmlari ikkinchi bosqichida ham alohida kitoblarga jamlanmagan. Biroq bu davrda Qur'onni kitob holiga keltirish va uni to'g'ri o'qish bilan bog'liq ilk harakatlar amalga oshirilgan. Jumladan, Abu Bakr Siddiq (r.a.) xalifaligi davrida Qur'oni karimning yozma shakli jamlanib mus'haf holiga keltirilgan. Aynan o'sha davrda musulmonlar islomni yoyish maqsadida tinimsiz g'azot qilib, ko'plab qorilar shahid bo'lgan. Qur'onni yod olgan qorilar kamayib borayotganidan tashvishlangan Umar ibn Xattob (r.a.) Abu Bakr (r.a.)ga uni mus'haf holiga keltirishni taklif qilgan. Shu tariqa Qur'oni karimning ilk jamlanishi amalga oshirilgan. Bu ishga Qur'onni eng yaxshi yod olgan va vahiy kotiblaridan bo'lgan Zayd ibn Sobitni mas'ul qilganlar. Ular kimda yozilgan Qur'on bo'lsa va Rasululloh (s.a.v.) huzurida yozilganiga eng kamida ikki nafar guvoh keltirsa, tekshirib ko'rganidan so'ng qabul qilganlar. Bir yildan ortiqroq muddatda Qur'on oyatlarini kiyik terisidan bo'lgan sahifalarga yozib, uni xalifa Abu Bakr (r.a.)ning uyiga qo'yganlar. Uning vafotidan so'ng sahifalar xalifa Umar ibn Xattob (r.a.)da, so'ngra Rasululloh (s.a.v.)ning ayoli Hafsada saqlangan (Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, 2013:10,223).

Demak, Qur'on oyatlarini jamlab, mukammal kitob shakliga keltirish amaliyotining asosiy sababi ilohiy matnni har qanday tahrif va yo'qolish xavflaridan muhofaza qilishdan iborat bo'lgan. Bu jarayon islom ta'limoti matnshunosligi tarixida nafaqat matnni asrab qolishning muhim chorasi, balki keyinchalik shakllangan sababi nuzul, qiroat, makkiy va madaniy oyatlar, nosix va mansux, muhkam va mutashobeh singari Qur'on ilmlarining tizimli ravishda rivojlanishi uchun mustahkam ilmiy asosni yaratgan.

Xalifa Usmon ibn Affon (r.a.) davrida islom davlati chegaralari sezilarli darajada kengayib, yangi fath etilgan hududlarda arab va g'ayriarab aholi ommaviy ravishda Islomni qabul qila boshlagan. Shu bilan birga, ushbu mintaqalarda Qur'onni to'g'ri tilovat qilish va rivoyatni asl holatda yetkazish borasida malakali qorilarning yetishmasligi kabi muammolar vujudga kelgan. Natijada, turli qabila va mintaq vakillari oyatlarni o'qish uslubi va talaffuz masalalarida o'zaro farqli qiroatlarga tayana boshlagan. Bu esa ayrim joylarda ixtiloflar va tortishuvlarning yuzaga chiqishiga sabab bo'lgan.

Ozarbayjon janubidagi fath amaliyotida ishtirok etgan sahoba Huzayfa ibn Yamon (r.a.) musulmonlar o'rtasida Qur'on tilovati borasida kuzatilayotgan bu kabi ixtiloflarning kelajakda jiddiy fitnaga aylanishi mumkinligini anglab, vaziyatning xavfli tomonlarini bevosita xalifa Usmon (r.a.)ga yetkazgan. Uning ushbu xabardorligi musulmonlarni yagona mus'haf atrofida jamlashga sabab bo'lish bilan birga, Qur'on ilmlarini o'z ichiga olgan asarlar yozila boshlagan tadvin jarayoni uchun ham muhim turtki bo'lgan. Shunday qilib, xalifaning buyrug'i bilan Abu Bakr (r.a.) davrida jamlangan mus'hafdan bir necha nusxalar ko'chirilgan (Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, 2013:10,240). Mazkur nusxalarning soni borasida turli qarashlar mavjud bo'lib, Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf ular oltita bo'lganini ta'kidlagan. Usmon (r.a.) bitta mus'haf bilan birga Abdulloh ibn Soibni Makkaga, Mug'iyra ibn Shihobni Shomga, Abu Abdurahmon Sulamiyni Kufaga, Omir ibn Abdul Qaysni Basraga yuborgani, Madinada dars berishi uchun bitta nusxani Zayd ibn Sobitga bergani va bir nusxani o'zi uchun olib qolganini qayd etgan (Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, 2013:248,249). Ulamolar xalifa Usmon ushbu ishi bilan "Rasmu-l-Qur'on" yoki "Rasmu-l-Usmoniy" ilmiga asos solganini ta'kidlaganlar.

Dastlabki uch xalifa zamonida qilingan ishlar Qur'oni karimning mus'haf holiga kelishi va muhofazasiga xizmat qilgan bo'lsa, Ali (r.a.) davrida Qur'oni karimga oid dastlabki ilmlardan biriga asos solingan. Uning buyrug'i bilan Mus'hafga ba'zi belgilar qo'yilib, to'g'ri o'qish uchun yordam beradigan bir qancha qoidalar ishlab chiqilgan. Ushbu ishni amalga oshirgan olim Abul Asvad Dualiy (vaf. 69/688 y.)dir. U dastlab fatha (a tovushi)ni ifodalash uchun harflarning tepasiga, kasra (i tovushi)ni ifodalash uchun harflarning tagiga, zamma (u tovushi)ni ifodalash uchun esa harflarning oldiga nuqta qo'yishni joriy qilgan (Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, 2013:299,300). Shu tariqa nahv va "E'robu-l-Qur'on" singari ilmlarga asos solingan.

Qur'on ilmlari rivojlanishining uchinchi bosqichiga kelib, mazkur sohada alohida risola va kitoblar ta'lif etila boshlagan. Bu davrda ayniqsa tafsir ilmiga ustuvor ahamiyat berilgan. Chunki Qur'oni karim islomiy ilmlarning barchasiga asos bo'lgan manba sifatida uni to'g'ri anglash, oyatlarning mazmun-mohiyatini ilmiy asosda izohlash va sharhlashni talab qilar edi. Shu bois, mufasssir olimlar oyatlarning sababi nuzuli, lug'aviy va uslubiy xususiyatlari hamda shar'iy ahkomlarini tadqiq etish orqali tafsir ilmini mustaqil fan sifatida shakllantirganlar. Birinchilar qatorida tafsir yozgan ulamolardan Sufyon Savriy (vaf. 161/778), Sufyon ibn Uyayna (vaf. 198/814), Vaki ibn Jarroh (tug'. 197/813), Shu'ba ibn Hajjoj (vaf. 160/777), Muqotil ibn

Sulaymon (vaf. 150/767) kabi olimlarni sanab o'tish mumkin. Ular tafsir kitoblarida Rasululloh (s.a.v.)dan kelgan hadislar, sahoba va tobeinlarning Qur'oni karim bilan bog'liq rivoyatlarini jamlaganlar.

Muhammad ibn Jarir Tabariy (vaf. 310/922) tafsirshunoslik tarixida o'ziga xos o'rin egallagan olim hisoblanadi. Uning "Jomeu-l-bayon fi tafsiri-l-Qur'on" nomli mashhur asari tafsir ilmining keyingi rivojida yangi bosqichni boshlab bergan manbadir. Tabariyga qadar o'tgan mufasssirlar oyatlarni tafsir qilishda asosan hadis va rivoyatlarni jamlash bilan cheklangan bo'lsa, u rivoyatlarni ilmiy asosda baholashga ham alohida e'tibor qaratgan. Masalan, asarda keltirgan rivoyatlarning sahih va zaifligi, dalilining kuchli yoki kuchsizligi, roviylar silsilasi va matn ishonchliligini tahlil qilgan. Shu tariqa, tafsir ilmini faqat rivoyatlarni jamlash ko'rinishidan ilmiy-tanqidiy tadqiqot bosqichiga olib chiqqan. Natijada, u naqliy va aqliy tafsirlarni muvofiqlashtirgan olim sifatida e'tirof etilgan (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2013:11,297).

MUHOKAMA

Ulamolar dastlab tafsir yozish bilan bir qatorda Qur'on ilmlarining boshqa yo'nalishlariga oid alohida asarlar ham ta'lif etganlar. Bu jarayon Qur'on ilmlarining mustaqil ilmiy soha sifatida shakllanishida muhim bosqich bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa, qiroat ilmi va mutavotir qiroatlar o'rtasidagi farqlarni o'rganishga bag'ishlangan ilk asarlarning paydo bo'lishi Qur'on oyatlarini to'g'ri o'qish va uning rivoyat zanjirlarini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etgan. Mazkur sohada yozilgan dastlabki asarlardan biri Yahyo ibn Ya'mar tomonidan ta'lif etilgan "Kitob fi-l-qiroat" asaridir. Ushbu asar qiroat ilmining ilk yozma manbalaridan biri bo'lib, unda mashhur qiroatlar o'rtasidagi farqlar, ularning rivoyat yo'llari hamda talaffuzdagi tafovutlar bayon qilingan. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, mazkur asar hijriy to'rtinchi asrga qadar qiroat ilmida asosiy manbalardan biri sifatida foydalanilgan. Bu esa qiroat ilmi dastlabki davrlardayoq tizimli ravishda shakllanganini ko'rsatadi.

Qiroat va unga aloqador masalalarni yoritgan boshqa muhim asarlar ham mavjud. Masalan, Abdulloh ibn Omir (vaf. 118/736) tomonidan yozilgan "Ixtilofot masohifi-sh-Shom va-l-Hijoz va-l-Iroq" asarida turli hududlarda tarqalgan mushaflar o'rtasidagi farqlar bayon qilingan. Bu asar Qur'on matnining yozilish uslublari va ular o'rtasidagi farqlarni o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, uning "Kitobu-l-maqtu va-l-mavsul" nomli asarida Qur'oni karimdagi ayrim so'zlarning birga yoki alohida yozilishi masalalari yoritilgan bo'lib, bu masala qiroat va "Rasmu-l-mus'haf" ilmi bilan bevosita bog'liqdir.

Shu bilan birga, Shayba ibn Nassoh Madaniy (vaf. 130/747) tomonidan yozilgan "al-Vuquf" asari ham Qur'onni o'qish jarayonida to'xtash (vaqf) va davom (ibtido) ettirish qoidalarini yoritishga bag'ishlangan dastlabki manbalardan biridir. Bu ilm Qur'on oyatlarini to'g'ri ma'noda tushunishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, noto'g'ri to'xtash yoki davom ettirish oyat ma'nosining o'zgarib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Xuddi shu yo'nalishda Abu Amr ibn A'lo tomonidan yozilgan "Kitobu-l-vaqf va-l-ibtido" asari ham Qur'on qiroatida to'xtash va boshlash qoidalarini ilmiy asosda bayon qilgan muhim manbalardan hisoblanadi.

Tadvin davrida olimlar tomonidan Qur'oni karim oyatlari soni masalasiga bag'ishlangan asarlar ham yozilgan. Bu borada Hasan Basriy (vaf. 110/728), Osim Jahdariy (vaf. 128/745) hamda Abu Amr Yahyo ibn Horis Zumoriy tomonidan yozilgan "Kitobu-l-adad" nomli asarlar muhim ilmiy manbalar hisoblanadi. Ushbu asarlarda Qur'on oyatlarining umumiy soni, ularning suralar bo'yicha taqsimoti haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Mazkur asarlar Qur'on ilmlarining dastlabki shakllanish bosqichida alohida ilmiy yo'nalishlarning paydo bo'lganini ko'rsatadi. Ayniqsa, qiroat, vaqf va ibtido, rasmu-l-mus'haf hamda oyatlar soni kabi masalalarning mustaqil ravishda o'rganilishi Qur'on ilmlarining tizimli rivojlanishiga zamin yaratgan. Keyinchalik aynan shu ilmiy meros asosida Qur'on ilmlarini umumlashtirgan yirik asarlar yuzaga kelgan. Demak, dastlabki davrda yaratilgan ushbu manbalar nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham Qur'on ilmlarining rivojida muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan (Fuod Sezgin, 1991:21-22).

TAHLIL

Movarounnahrda ham dastlab Qur'on ilmlari ichida tafsir sohasiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu jarayon natijasida mintaqadagi ulamolar tomonidan turli uslub va yo'nalishlarda ko'plab tafsir asarlari yozilgan. Jumladan, Abd ibn Humayd Keshiy (vaf. 248/863 y.) birinchilardan bo'lib tafsir yozgan olim sifatida e'tirof etilgan. Uning tafsiridan bizga yetib kelgan qismi Oli Imron va Niso suralarining tafsirini o'z ichiga oladi. Mavjud matnning uslubi olimlar tomonidan ijobiy baholangan bo'lib, "tafsir bil-ma'sur" yo'nalishiga mansub ekani alohida ta'kidlangan (Abd ibn Humayd, 2004:11,14,19). Ya'ni u hadislar, sahoba va tobeinlardan kelgan rivoyatlarga tayanilgan holda naqliy asosda yozilgan tafsir hisoblanadi.

Humayd Keshiy o'z tafsirida Qur'on ilmlariga oid ayrim rivoyatlarni oyatlarni tafsir qilish asnosida keltirgan. Masalan, Oli Imron surasidagi: "Unda shu Kitobning "onasi" sanalmish (ma'nosi) aniq oyatlar va (shu bilan birga) yana mutashobeh (ma'nosi O'zidan boshqaga noma'lum) oyatlar ham bor" oyati tafsirida nosix va mansux ilmiga doir Zahhokdan kelgan: "Muhkamlar – mansux bo'lmagan oyatlar, mutashobehlar esa – mansux bo'lgan oyatlardir" (Abd ibn Humayd, 2004:20), degan qarashni zikr qilgan.

Abu Mansur Moturidiy tafsir sohasida "Ta'vilot ahli-s-Sunna" nomli kitob yozgan. Mazkur tafsir boshqalaridan o'ziga xos uslubi bilan ajralib turadi. Imom Moturidiy uni yozishda ko'proq tafsir emas, balki ta'vil qilishga e'tibor qaratgan. Shuningdek, tafsirda aqidaviy oyatlarni kengroq tafsir qilib, turli oqimlarga raddiyalar bergan. Fuad Sezgin "Tarixu-t-turosi-l-arabiy" asarida Imom Moturidiyning Qur'onda to'xtash joiz bo'lmagan o'rinlar xususida risola yozganini aytgan. Risola besh sahifadan iborat bo'lib, unda Qur'ondagi to'xtash mumkin bo'lmagan ellik ikkita o'rin zikr qilingan (Abu Mansur Moturidiy, 2005:89). Ba'zi tadqiqotlarda mazkur risola Imom Moturidiyniki emas, degan qarashlar ham mavjud.

Qaffol Shoshiy (vaf. 366/976) tafsir sohasida "at-Tafsiru-l-kabir" nomli asar yozgani ma'lum. Faxriddin Roziy (vaf. 311/923), Imom Qurtubiy (vaf. 671/1272), Abu Hayyon (vaf. 745/1344), Jaloliddin Suyutiy (vaf. 911/1505), Abu Hafs Nasafiy, keyingi davr ulamolaridan Mahmud Shihobiddin Olusiy (vaf. 1270/1854), Abu Saud (vaf. 982/1574) kabi mufasssirlar o'z asarlarida Qaffol Shoshiyning "at-Tafsiru-l-kabir" asaridan naqlar keltirgan. Mazkur asar naqliy tafsir bo'lib, unda Qur'on ilmlariga doir ko'plab rivoyatlarni uchratish mumkin. Bu rivoyatlar keyinchalik turli olimlar tomonidan o'z asarlarida asos qilib olingani, asarning sahih va ishonchli manba ekanini ko'rsatadi.

Abu Lays Samarqandiy (vaf. 373/983) fiqh va hadis ilmidagi faoliyatidan tashqari, tafsir sohasida ham muhim asar qoldirgan. Uning "Tafsiru-l-Qur'on" asari, keyinchalik "Bahru-l-ulum" nomi bilan mashhur bo'lgan, tafsirshunoslikda alohida ahamiyatga ega manba hisoblanadi (Ahmad Amir Muhammad Johin Ismoil, 2013:4705). Yana bir samarqandlik olim Ahmad ibn Muhammad Haddodiy hijriy V asrda yashab irod qilgan va Qur'on, tafsir, arab tili sohalarini yaxshi bilgan. Haddodiy tafsir va Qur'on ilmlariga doir "al-Muvazzih li ilmi-l-Qur'on",

“al-Madخال li ilm tafsir kitobilloh”, “al-G’unya fi-l-qiroat” kabi kitoblar yozib qoldirgan. “Al-Muvazzih fi-t-tafsir” asarida g’arib, ya’ni izoh talab qilinadigan so’zlar va ma’nosi mujmal iboralar izohlangan. Kitob 113 sahifadan iborat bo’lib, unda 200 ta so’zning izohi va mashhur arab shoirlarining sherlari keltirilgan. Haddodiy “al-Madخال li tafsir kitobilloh” asari muqaddimasida “al-Muvazzih li ilmi-l-Qur’on”ni o’g’li Muhammad Ne’matulloh va boshqa musulmonlarga tuxfa sifatida yozganini ta’kidlagan.

Ja’far ibn Muhammad Abu Abbos Mustag’firi Nasafiy (vaf. 432/1041) faqih, hofiz va muhaddis sifatida mashhur bo’lgan. U islom dinining turli sohalarida bir qator asarlar ta’lif etgan. Ular orasida “Ma’rifatu-s-Sahoba”, “Daloilu-n-nabaviy”, “ash-Shamoil”, “Tarix Nasaf”, “Tarix Kesh”, “Tib” kabilar alohida e’tiborga sazovordir. Shuningdek, u Qur’on ilmlariga oid “Fazoilu-l-Qur’on” nomli alohida asar ham yozgan (Ahmad Amir Muhammad Johin Ismoil, 2013:4727).

Mahmud Zamaxshariy (vaf. 538/1144 y.) nahv, lug’at, balog’at, hadis va tafsir sohalarida yetuk olim bo’lgan. Hijriy 467 yil Xorazmning Zamaxshar qishlog’ida tavallud topgan va Abu Hafs Nasafiy bilan bir davrda yashagan. U “Xorazm faxri”, “Allohning qo’shnisi” laqablari bilan mashhur bo’lgan. Alloma yozib qoldirgan asarlardan “Asosu-l-bulag’o”, “al-Qustos fi ilmi-l-aruz”, “al-Mufassal”, “al-Foiq fi g’aribi-l-hadis” kabilarni keltirish mumkin. Uning “al-Kashshof” asari Qur’oni karim tafsiriga bag’ishlangan muhim kitoblardan biridir. Ushbu tafsir haqida ulamolar turli fikrlar bildirgan: ba’zilari uni yuqori baholagan, ba’zilari esa ayrim jihatlarini tanqid qilgan. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Qur’on ilmlari” kitobida shunday deyilgan: “Al-Kashshof” tafsiri haqida ulamolar juda ko’plab yaxshi maqtovlar aytgan. Ba’zilar: “Agar “al-Kashshof” bo’lmaganda, Qur’oni karimning ma’nolari to’liq kashf bo’lmay qolar edi”, deganlar. Ulamolar “al-Kashshof” tafsirining keraksiz va ortiqcha narsalardan xoli ekani, qissa va isroiliyotdan salomatligi, ma’nolarni bayon qilishda arab tili qoidalariga asoslangani, balog’atga alohida e’tibor berilgani hamda savol-javob uslubida yozilgani kabi xususiyatlarini sanab o’tgan.

Mahmud Zamaxshariy ma’lum masalalarni bayon qilish asnosida “Agar sen unday desang, men bunday deyman” uslubini ishlatgan. “Al-Kashshof” haqida ko’plab iliq fikrlar aytilgan. Shu bilan birga, uni tanqid qilganlar ham bor. Tanqidlarning xulosasi ikki narsaga borib taqaladi: Birinchisi, muallifning mo’taziliylar kabi fikrlagani bo’lsa, ikkinchisi, tafsirda zaif va to’qima hadislarining keltirilganidir. Keyingi davr olimlaridan Imom Ahmad ibn Muhammad ibn Munir “al-Insof” asari orqali “al-Kashshof”dagi mo’taziliy fikrlarni to’g’rilagan. Imom Abdulloh ibn Yusuf Zaylaiy esa undagi zaif va soxta rivoyatlarni aniqlab chiqqan. “Al-Kashshof” tafsiri mazkur ikki ilova bilan nashr qilingani foydali bo’lgan” (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2013:504). “Al-Kashshof” asaridan Abu Hafs Nasafiy ham keng foydalangan. “Al-Akmalu-l-atval” tafsirida Mahmud Zamaxshariyning arab tili grammatikasiga doir ko’plab qarashlarini uchratish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Movarounnahr hududida Qur’on ilmlarining shakllanishi va rivojlanishi dastlab hadis va tafsir ilmlari bilan uzviy bog’liq holda namoyon bo’lgan. Ilk davrlarda Qur’on ilmlariga oid masalalar mustaqil tarzda emas, balki tafsir va hadis to’plamlarining tarkibida bayon etilgan. Bu esa o’sha davr ilmiy an’analarda Qur’onni tushunish va tafsir qilish jarayoni boshqa shar’iy ilmlar bilan chambarchas bog’liq holda olib borilganini ko’rsatadi. Vaqt o’tishi bilan Qur’on ilmlarining ayrim yo’nalishlari alohida tadqiqot

mavzusiga aylana boshlagan bo'lsa-da, ushbu fanlarning barcha tarmoqlarini to'liq qamrab olgan mustaqil asarlar soni nisbatan kam bo'lgan.

Bizgacha yetib kelgan manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, movarounnahrlik olimlar tomonidan yozilgan tafsir kitoblari islom ilmlarining eng rivojlangan yo'nalishlaridan biri bo'lgan. Shuningdek, Movarounnahr tafsir maktabining yana bir muhim xususiyati shundaki, unda moturidiylik aqidaviy qarashlari va hanafiylik fiqhiy tamoyillari ustuvor o'rin egallagan. Natijada bu hududda yaratilgan tafsir asarlarida Qur'on oyatlari nafaqat lug'aviy jihatdan, balki aqidaviy va fiqhiy talqinlar asosida ham izohlangan. Bu esa Movarounnahr tafsir an'anasining o'ziga xos ilmiy maktab sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf (2013). Qur'on ilmlari. Toshkent: "Hilol-Nashr" nashriyoti.
2. Raximdjano D. (2020). Abu Hafs Nasafiy va uning "Kitobu-l-qand" asari (monografiya). Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi.
3. Muhammad ibn Ismoil Buxoriy (2002). Sahihu-l-Buxoriy. Damashq: Dor ibn Kasir.
4. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf (2014). Oltin silsila: Sahihul Buxoriy (J. I.). Toshkent: Hilol-Nashr.
5. Muslim ibn Hajjoj (2006). Sahih Muslim / Tahqiq: Nazr ibn Muhammad. Ar-Riyod: Dor Toyba.
6. Muhammad Adulazim Zarqoniy (2017). Manohilu-l-irfon fi ulumi-l-Qur'on. Qohira: Matbaa Iso al-Bobi-l-Halabiy.
7. Muhammad Abu Shahba (1987). Al-Madhal li dirosati-l-Qur'on. Riyod: Doru-l-voi.
8. Ahmad Amir Muhammad Johin Ismoil (2013). Al-Mufasssirun fi bilodi Movarounnahr. Misr: Doru-l-kutubi-l-misriy.
9. Fuod Sezgin (1991). Tarixu-t-turosi-l-arabiy (J. I.). Riyoz: Jomeatu-l-imom Muhammad ibn Saud.
10. Abd ibn Humayd (2004). Qit'a min tafsiri-l-imom Abd ibn Humayd. Bayrut: Dor ibn Hazm.
11. Abu Mansur Moturidiy (2005). Ta'vilot ahli-s-sunna tafsiru-l-Moturidiy / Tahqiq: Doktor Majdiy Bosallum. Bayrut: Doru-l-kutubi-l-ilmiya.